

**ZAMONAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISH - PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHNING VOSITASI SIFATIDA**

**Umarjonova Malika**  
**ADPI, Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya**  
**yo’nalishi 2-bosqich talabasi**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada o’qituvchining zamonaviy dars jaroyinini qanday tashkil qilishi kerakligi, darsga pedagogik mas’uliyat bilan yondashishi lozimligi, darslarda gi uchrab turadigan xato va kamchiliklar yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** dars samaradorligi, tashhishlash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish).

Bugungi kunda zamonaviy darsning samaradorligi o’qituvchining puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog’liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o’ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o’quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo’la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta’minlovchi o’quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta’minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir. O’qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko’zga tashlanadi: tashxislash. bashoratlash. loyihalashtirish (rejalashtirish). Shu bilan birga o’qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o’z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo’lajak mashg’ulotning algoritmlari, samaradorligi bog’liq bo’lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta’minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Pedagogik jarayonda tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o’quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilim donlik darajasi, o’quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo’ladi.

Bashoratlash bo’lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) o’quvchilarning o’quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo’lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Darslarda pedagogning o’quvchilar tomonidan uy vazifalarining halol bajarishlariga kam e’tibor berayotganliklari, ularni sinfda tekshirishga urinmasliklari, yaxshi o’zlashtirayotgan o’quvchilarni rag’batlantirib bormasliklari ta’lim amaliyotida keng tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Uy vazifalarini tushuntirib berishga ko’pincha vaqt yetmaydi, ular shoshilinch beriladi.

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo’lgan talablarda o’zining aniq ifodasini topadi.

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg’or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o’quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash;
- o’quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o’zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o’quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog’liqliklarni o’rnatish;
- zarur bilim, konikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, yuqoridagi talablarga javob bera oladigan dars tashkil qilish pedagogning mahoratiga, uning izlanishlariga, malakasiga bog’liq. Agarda o’qituvchi hamma talablarga javob beradigan dars tashkil eta olsa u mukammal va zamon talabiga mos pedagog bo’la oladi. O’qituvchi mahoratli bo’lish bilan birga tajribaga, hamda keng dunyoqarashga ega bo’lishi kerak. U mas’uliyatli bo’lishi, o’quvchilarga e’tiborli bo’lishi, darsga to’liq tayyorlangan holda kelishi, o’quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berishi va o’quvchining kelajagiga befarq bo’lasligi kerak. Dars o’tishda zamonaviy va qiziqarli metodlardan foydalanish o’quvchini o’z darsiga qiziqтира olishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik T:SANO-STANDART, 201
2. Pedagogika.// M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida, Darslik,- T.:Ozbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
3. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T, Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi, Darslik,- T.:Iqtisodiyot dunyosi, 2018.